

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: sarvinozraxmonova94@gmail.com

Tel: +998912305052

UDK: 811.82.42

FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR ORQALI SABR VA CHIDAM

TUSHUNCHALARINING AKSIOLOGIK TALQINI

Annotatsiya. Frazeologizmlar tilning muhim qismlaridan biri bo'lib, ma'lum bir funksiyalarga egadir. Frazeologiyaning muhim vazifasi tilning semantik jihatini tahlil qilish, frazeologik birliklarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni samarali qo'llashdan iborat. Ushbu maqolada frazeologik birliklar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, sabr va chidam tushunchalarining aksiologik talqini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sabr, chidam, frazeologiya, aksiologik xususiyatlar, qadriyatlar, axloqiy tamoyillar.

Рахманова Сарвиноз Алишеровна

Преподаватель Термезского государственного педагогического института

Э-почта: sarvinozraxmonova94@gmail.com

Тел: +998912305052

АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЙ

ТЕРПЕНИЕ И ВЫНОСЛИВОСТЬ ЧЕРЕЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Аннотация: Фразеологизмы являются одной из важных частей языка и выполняют определенные функции. Важной задачей фразеологии является анализ семантической стороны языка, определение общих и особенностей фразеологизмов и их эффективное использование. В данной статье представлена информация о фразеологизмах. Также выделена аксиологическая трактовка понятий терпения и выносливости.

Ключевые слова: терпение, выносливость, фразеология, аксиологические особенности, ценности, моральные принципы.

Raxmanova Sarvinoz Alisherovna

Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: sarvinozraxmonova94@gmail.com

Phone: +998 91 230 50 52

AXIOLOGICAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF PATIENCE AND ENDURANCE THROUGH PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract: Phraseologisms are one of the important parts of the language and perform certain functions. An important task of phraseology is the analysis of the semantic side of the language, the definition of common and peculiarities of phraseologisms and their effective use. This article provides information about phraseologisms. Also, the axiological interpretation of the concepts of patience and endurance is analyzed.

Key words: patience, endurance, phraseology, axiological features, values, moral principles.

Kirish.

Barchamizga ma'lumki insoniyat o'z tarixi davomida turli xil qiyinchiliklar va sinovlarni boshdan kechiradi. Bu davrda insonning sabr va chidami xam sinovlardan o'tadi, sabr va chidam tushunchalari nafaqat shaxsiy hayotimizda balki butun jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Bu ikki tushuncha ruhiyatimizning kuchini va qiyinchiliklarga qarshi kurashish qobilatimizni ham belgilaydi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bundan tashqari sabr va chidam tushunchalari bizning madaniyatimiz va qadriyatlarimizning muhim jihatlaridan biri hisoblanib, insonlarni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Bu orqali insonlarning mehnatsevarligi, bir birlariga bo'lgan hurmati ham oshadi.

Adabiyotlar tahlili.

Frazeologizmlar bu bizning nutqimizni rang barangligini oshirishga yordam beradi. Frazelogik birliklar bu tilimizning muhim qismlaridan biri bo'lib, ma'lum bir funksiyalarga ega hisoblanadi. Frazelogiyaning muhim vazifasi bu tilning semantik jihatini tahlil qilish, frazeologik birliklarning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularni tilni o'rganish jarayonida samarali qo'llashdan

iborat. Frazeologik masalalarga o'zbek tilshunosligida ham ko'plab tadqiqotchilar e'tibor qaratganlar va bu yo'nalishda bir qancha ishlar olib borilib turlicha xulosalarga kelishgan. Xususan X.Abduqahhorovning "O'zbek tilida frazeologiya" [2] nomli metodik o'quv qo'llanmasida tilni o'rganishda frazeologik birliklarning ahamiyati va ularning qo'llanilishi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari A.Azimovning "O'zbek tilida frazeologik birliklar" [3] asari ham frazeologizmlarning tahlilini va ularning o'ziga xosligini o'rganishga qaratilgan. Sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida ham sabrning inson hayotida qanchalik muhim ekanligi, sabr orqali inson o'zini tarbiyalashi mumkinligi asar qahramonlari tomonidan judayam yaxshi ochib berilgan. Rus tilshunosligida ham tadqiqotchilar frazeologik birliklar bilan shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan S.A Zayonchkovski o'z asarlarida frazeologiya va idiomatik iboralarning psixologik va lingvistik jihatlarini o'rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borgan. B. Davronovning "O'zbek tilining frazeologiyasi" [4] asari o'zbek tilining frazeologik birliklarini o'rganishga bag'ishlangan muhim ilmiy ishdir. Ushbu asar frazeologiyaning turli jihatlarini, shu jumladan, frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini tahlil qiladi. Professor A.V. Kunin ham o'z asarlarida frazeologik birliklarga nisbatan shunday ta'rif beradi: "Frazeologik birlik to'liq yoki qisman ma'nosi o'zgargan turg'un so'z guruhidir" [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola frazeologik birliklar orqali sabr va chidam tushunchalarining aksiologik talqiniga bag'ishlangan bo'lib, mavzuni yoritib berishda lingvistik, kulturologik, pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Xalqimizda azal azaldan sabr va chidam tushunchalari insonning psixologik kuchini, ruhiy holatini va qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyatini aks ettiradigan tushuncha deb hisoblanib kelinadi. Bu tushunchalarni frazeologik birliklar orqali ifodalaydigan bo'lsak u xalqning qadriyatlarini, dunyoqarashini va aqidalarini ifodalaydi [2].

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama” (phrasis- ifoda, nutq o‘rami) so‘zidan olingan bo‘lib, turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda qo‘llaniladi: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma’nosida hamda shunday birliklarni o‘rganuvchi soha ma’nosida. Shundan kelib chiqib, frazeologiyaga iboralar haqidagi ilm deb ta’rif bersak bo‘ladi [1].

Insoniyatning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak sabr va chidam birliklarining aksiologik talqini muhim hisoblanadi. Aksiologiya – bu qadriyatlar, yaxshi va yomon, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, axloqiy va estetik mezonlar haqida fikr yuritadigan falsafiy soha hisoblanadi. Ijtimoiy hayotimizda, o‘zaro munosabatlarda va o‘zligimizni anglash jarayonida sabr va chidam birliklari zarur bo‘lgan axloqiy fazilatdir. Aksiologik jihatdan esa insoniyatning eng oliy maqsadlariga erishishda, ichki kuch va irodani shakllantirishda qanday ahamiyat kasb etishini tahlil qiladi. Sabr va chidam tushunchalarining aksiologik talqini shaxsiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega deb aytib o‘tdik, demak bu fazilatlar orqali inson faqat o‘zining ruhiy va jismoniy qiyinchiliklariga qarshi kurashmaydi, balki jamiyatdagi o‘zaro hurmat, adolat va tinchlikni ta’minlashda ham bu tushunchalarining ahamiyati muhimdir [4].

Sabr va chidam tushunchalarini kulturologik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, bu tushunchalar insonning nafaqat shaxsiy xususiyatlari, balki madaniyatlar va jamiyatlar tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir [3].

Sabr ko‘p hollarda ijtimoiy me’yor sifatida qadrlanadi va madaniyatlarda axloqiy fazilat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, turli madaniyatlarda sabr tushunchasi ruhiy mukammallikka erishishning muhim yo‘llaridan biri deb hisoblanadi [5].

Sabr tushunchasi bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, chidam tushunchasi ko‘proq fiziologik qiyinchiliklarga, davomli stresslarga yoki tashqi muhitdan keladigan bosimlarga qarshi tura olish qobiliyatini ifodalaydi. Madaniyatlar nuqtai nazaridan

chidam tushunchasi turlicha ifodalanadi. Ba'zi bir jamiyatlarda chidam yuqori maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan fazilat sifatida ulug'lanadi, boshqa madaniyatlarda esa bu tushuncha ko'proq cheklovchi va maqsadsiz holat sifatida qaralishi mumkin. Turli xil madaniyatlarda bu tushunchalar turli usullar bilan talqin qilinadi. Masalan, ba'zi bir Sharq madaniyatlarida sabr va chidam ko'proq ruhiy o'sishning ajralmas qismi sifatida qaraladi, G'arb madaniyatlarida esa ko'pincha faol harakat, o'zgarish va izlanish orqali qiyinchiliklarga qarshi kurashish muhimroq deb baholanadi [1].

Kulturologik metodga ko'ra, sabr va chidam ijtimoiy, tarixiy kontekstlarda o'zgarib turadi va har bir jamiyatda o'zining maxsus ma'nosini anglatadi. Bu tushunchalarning shakllanishi va ijtimoiy qabul qilinishi, jamiyatning qadriyatlar tizimi, inson tabiati haqidagi qarashlar va tarixiy jarayonlarga bog'liq bo'ladi.

Sabr va chidam tushunchalari turli madaniyatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning pragmatik talqinida hayotiy muammolarni hal qilishda va qarorlar qabul qilishda qanday samara berishi tushuniladi.

Pragmatik talqinda sabr birinchi o'rinda vaqtni samarali boshqarish va ichki xotirjamlikni saqlashni ifodalaydi. Bu tushuncha insonning uzoq vaqt davomida maqsadlariga erishish uchun kerak bo'lgan ruhiy holatni ifodalaydi [2].

Chidam tushunchasi esa insonning turli xil hayotiy muammolar, jismoniy yoki hissiy og'riqlarga qarshi chidamli bo'lishi va bu orqali hayotning turli bosqichlarida muvaffaqiyat erishishini ifodalaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqi o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli xil qiyinchiliklarni sabr va chidam orqali yengib kelgan. Bu davrda ularning ham psixologik ham jismoniy kuchi sinovlardan o'tgan. Tilshunosligimizda sabr va chidamga oid ko'plab frazeologik birliklar ajdodlarimiz tomonidan nutqimizga chiroyli holatda olib kirilgan. Frazeologik birliklar nutqimizni bezashga va aytilishi kerak bo'lgan gaplarni tinglovchiga yoqimli yo'l bilan yetkazishga yordam beradi. Bu birliklar orqali xalqimiz o'zining axloqiy qadriyatlarini o'zaro muloqotda yoki hikoyalarda ifodalaydi. Shuningdek, sabr va

chidam frazeologik birliklarining aksiologik xususiyatlari, insonlarning axloqiy-psixologik va madaniy qadriyatlarini ifodalaydi. Ular ko‘pincha ijobiy xislatlar sifatida ko‘riladi va jamiyatda hurmat, kuch va barqarorlikka urg‘u beradi.

Adabiyotlar

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983. – 119 b.
2. Abduqahhorov X. O‘zbek tilida frazeologiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2011. – 214 b.
3. Azimov A. O‘zbek tilida frazeologik birliklar. – Toshkent. 1986. – 172 b.
4. Davronov B. O‘zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 281 b.
5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Международные отношения, 1986. – 944 с.